



UO'K: 81'373.43(=1/8)

*Iroda ORTIQOVA,*  
*O'zDJTU o'qituvchisi*  
*E-mail: pirmatova2012@gmail.com*

*PhD D.Abduramanova*

**RETERMINOLOGICAL DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TERMS IN ECONOMIC DISCOURSE  
(ON THE ANALYSIS OF THE CONCEPTS "GREEN ECONOMY" AND "ECONOMIC RESOURCES")**

Annotation

This article examines the process of reterminologization in ecological terminology from linguistic and cognitive perspectives. Using the terms green economy and economic resources as case studies, the paper explores how ecological concepts enter economic and political discourse and acquire new semantic and functional features. It is demonstrated that reterminologization occurs through semantic expansion, abstraction, and the increasing use of terms in normative and applied contexts. The study employs discourse analysis, comparative-semantic analysis, and a cognitive approach. The findings confirm the adaptability of the Uzbek terminological system to interdisciplinary interaction and contemporary socio-economic needs. The results may contribute to the systematic development of environmental and economic terminology.

**Keywords:** reterminologization, ecological terminology, green economy, economic resources, discourse analysis, cognitive approach, terminological evolution, interdisciplinary integration, semantic expansion, metaphorical transfer.

**РЕТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ  
ДИСКУРСЕ (НА ПРИМЕРЕ ПОНЯТИЙ «ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА» И «ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ»)**

Аннотация

В статье рассматривается процесс ретерминологизации в экологической терминологии с лингвистической и когнитивной точек зрения. На примере терминов «зелёная экономика» и «экономические ресурсы» анализируется вхождение экологических понятий в экономический и политический дискурс и приобретение ими новых семантических и функциональных характеристик. Показано, что ретерминологизация реализуется через расширение значения, абстрагирование и активное использование терминов в нормативных и прикладных контекстах. В исследовании применяются методы дискурс-анализа, сравнительно-семантического и когнитивного анализа. Полученные результаты подтверждают адаптивность узбекской терминологической системы к междисциплинарным процессам. Выводы статьи могут быть использованы в разработке современной эколого-экономической терминологии.

**Ключевые слова:** ретерминологизация, экологическая терминология, зелёная экономика, экономические ресурсы, дискурсивный анализ, когнитивный подход, терминологическая эволюция, междисциплинарная интеграция, семантическое расширение, метафорический перенос.

**EKOLOGIK TERMINLARNING IQTISODIY DISKURSDAGI RETERMINOLOGIK RIVOJI  
(“YASHIL IQTISODIYOT” VA “IQTISODIY RESURLAR” MISOLIDA)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologiya terminologiyasida reterminologizatsiya jarayoni lingvistik va kognitiv jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda “yashil iqtisodiyot” va “iqtisodiy resurslar” terminlari misolida ekologik tushunchalarning iqtisodiy va siyosiy diskurslarga kirib borishi hamda yangi ma’noviy va funksional yuklama kasb etishi yoritiladi. Reterminologizatsiya terminlarning yangi diskurs sharoitida semantik kengayishi, abstraktlashuvi va normativ-amaliy qo’llanish doirasining kengayishi orqali amalga oshishi ko’rsatiladi. Maqolada diskurs tahlili, qiyosiy-semantik va kognitiv yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Natijalar o’zbek terminologik tizimining fanlararo integratsiyaga moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot xulosalari ekologik va iqtisodiy terminlarni tizimli shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so’zlar:** reterminologizatsiya, ekologik terminologiya, yashil iqtisodiyot, iqtisodiy resurslar, diskurs tahlili, kognitiv yondashuv, terminologik evolyutsiya, fanlararo integratsiya, semantik kengayish, metaforik transfer.

**Kirish.** Zamonaviy ijtimoiy inqilob sharoitida raqamli texnologiyalarning ommalashuvi, axborot resurslarining globallashuvi hamda fan-texnika integratsiyasi terminologik tizimlarga ham chuqur ta’sir ko’rsatib, ayniqsa global ekologik muammolar kuchaygan davrda ekologik tushunchalarning yangi semantik va diskursiv maydonga kirib kelishiga zamin yaratmoqda; natijada reterminologizatsiya hodisasi rivojlanib, ilgari umumlashgan yoki umumiste’mol qatlamiga o’tgan atamalar yangi sohada yana maxsus termin sifatida mustahkamlanadi va bu jarayon terminning qayta termin maqomini tiklashi (Kabre, 2003), ma’no jihatdan qayta talqin

qilinishi, tushunchaviy doirasining kengayishi hamda amaliy qo’llanishining o’zgarishi bilan tavsiflanadigan murakkab konseptual jarayon sifatida namoyon bo’ladi (Auger, 2018).

Shu jihatdan reterminologizatsiya terminologik tizimning ichki rivojlanishini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo’ladi. U terminlarning zamon, fan va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda yangilanib borishini, terminologik tizimning barqarorligi va izchilligini saqlab qolishini ta’minlaydi (Hoffmann, 2021).

Masalan, “yashil iqtisodiyot” tushunchasi 2010-yillarda Butunjahon banki (World Bank) va BMT tashkilotlari

tomonidan barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy mexanizmi sifatida taklif etilgan bo'lsa-da, dastlab bu atama ekologik harakatchilarning diskursida atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan idealistik g'oya sifatida mavjud bo'lgan. "Yashil" (green) sifat — lotin tilidagi viridis so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab tabiatning sovuq, omon, hayotli va o'z-o'zidan tiklanuvchi xususiyatini ifodalagan (Toynbee, 1972). Biroq, raqamli iqtisodiyot sharoitida "yashil" atamasi iqtisodiy samaradorlik, yashil investitsiyalar, uglerodli kam emissiyali texnologiyalar hamda barqaror iste'mol modeli kabi yangi muhim tushunchalarni o'z ichiga olgan tizimli konseptga aylangan.

Shu tarzda, "yashil iqtisodiyot" o'zbek tilida ham faqat "ekologik toza ishlab chiqarish" degan umumiy ma'noni emas, balki davlat siyosati, xalqaro hamkorlik, davlat-byudjet tizimi, xavfsizlik strategiyalari bilan bevosita bog'langan ixtisoslashtirilgan termin sifatida qabul qilinmoqda. Bu jarayon diskurslararo integratsiya (interdiscursive integration) — turli sohalarining diskurslari o'rtasida terminologik birikmalar hosil bo'lishi — natijasidir (van Leeuwen, 2008). O'zbekiston Respublikasida ham "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son) qabul qilingan bo'lib, bu hujjatda "yashil iqtisodiyot" atamasi iqtisodiyot, energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat hamda ta'lim sohalarini qamrab oluvchi keng konsept sifatida belgilangan.

Xuddi shu tarzda, "iqtisodiy resurslar" atamasi ham o'z evolyutsiyasini bosib o'tgan. Dastlab, bu atama klassik iqtisodiyotda — yer, mehnat, kapital — deb qaralgan material omillarni anglatgan. Biroq, barqaror rivojlanish kontekstida tabiiy kapital (natural capital), ijtimoiy kapital, inson kapitali, hatto atrof-muhit xizmatlari (ecosystem services) ham iqtisodiy resurslar tarkibiga kiritilgan (Costanza et al., 1997). Shu bilan birga, iqtisodiy resurslar tushunchasi endi "soxta iqtisodiy foyda" emas, balki davomli samaradorlik va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyati sifatida qayta ta'riflangan.

O'zbek tilida "iqtisodiy resurslar" atamasi bugungi kunda darsliklar va normativ-huquqiy hujjatlarda faqat moliyaviy yoki moddiy boyliklar bilan cheklanib qolmay, balki ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, atrof-muhit xavfsizligi kabi yangi tarkibiy komponentlarni ham qamrab olgan holda qo'llanilmoqda. Jumladan, iqtisodiyot faniga oid zamonaviy o'quv qo'llanmalarda "iqtisodiy resurslar" tushunchasi tarkibiga yer, suv, energiya manbalari, atmosfera sifati kabi ekologik omillar kiritilib, ular ishlab chiqarish jarayonining ajralmas sharti sifatida talqin qilinmoqda.

Masalan, davlat siyosiy-huquqiy hujjatlarida ham mazkur terminning semantik ma'no kengayishi kuzatiladi. Masalan, strategik davlat dasturlarida "suv va energetika resurslaridan samarali foydalanish", "atmosfera resurslarini muhofaza qilish" kabi birikmalarining qo'llanishi "resurs" tushunchasining moddiy boylik emas, balki boshqarilishi va muhofazasi zarur bo'lgan ekologik kapital sifatida qayta talqin qilinayotganidan dalolat beradi.

Boshqacha aytganda, termin yangi soha kontekstida faqat qayta ta'riflanib qolmay, balki yangi vazifani bajaruvchi, amaliy jihatdan faol qo'llaniladigan va diskursda muhim rol o'ynovchi birlikka aylanadi. Masalan, ekologik diskursda tabiatni muhofaza qilish g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan "barqarorlik" tushunchasi iqtisodiy nutqda investitsiya samaradorligi, uzoq muddatli rivojlanish modeli va davlat strategiyasining mezon sifatida qo'llanilmoqda.

Xuddi shuningdek, "resurs" atamasi ekologik diskursda asosan tabiiy boyliklarni ifodalagan bo'lsa, raqamli va iqtisodiy kontekstda u boshqariladigan kapital, raqamli imkoniyat, strategik salohiyat ma'nolarida faol ishlatilmoqda. Natijada

termin diskursiv jihatdan kengayib, yangi soha ehtiyojlariga moslashgan holda yangi semantik va funksional yuklama kasb etadi.

Demak, terminlar migratsiyasi jarayoni zamonaviy sharoitda faqat leksik hodisa emas, balki bilimlar almashinuvi, tushunchalarning qayta shakllanishi va diskurslararo integratsiyani ta'minlovchi muhim lingvistik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Zamonaviy terminshunoslikda reterminologizatsiya atamasi terminologik tizimning dinamik barqarorligini tushuntiruvchi asosiy nazariy kategoriyalardan biri sifatida qabul qilinadi. Bu hodisa — avvalgi ixtisoslashtirilgan ma'noni yo'qotib, umumiy so'zlashuv tiliga kirib ketgan yoki boshqa soha kontekstida qayta ixtisoslashtirilgan terminlarning yangi diskurs maydonida qayta konseptualizatsiyalanishi sifatida tushuniladi. Tilshunos olimlar reterminologizatsiyani faqat semantik o'zgarish emas, balki diskursiv, hamda kognitiv o'tish jarayoni sifatida ham ta'kidlaydilar.

Tilshunos Mariya Tereza Kabre (2003) reterminologizatsiyani diskurslararo o'zaro aloqadorlik mahsuli sifatida talqin qilib, terminlarning bir sohadan boshqasiga o'tishi jarayonida mazmuniy qayta talqin, funksional o'zgarish va ijtimoiy-amaliy moslashuv yuz berishini ta'kidlaydi; natijada termin yangi diskurs muhitida mustaqil tushuncha sifatida shakllanib, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda ramziy hamda normativ ahamiyat kasb etadi, shu bois "yashil iqtisodiyot" kabi birliklar bugun nazariy atama bo'lishdan tashqari, barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim konseptual vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Mazkur semantik va funksional transformatsiyani izohlashda kognitiv lingvistikaning konseptual metafora nazariyasi (Lakoff va Johnson, 1980) muhim metodologik asos bo'lib, unga ko'ra metafora til hodisasi emas, balki tafakkurning yetakchi mexanizmi sanaladi; shu nuqtai nazardan "yashil" sifati rang va tabiatni anglatuvchi konkret belgi darajasidan barqarorlik, tiklanuvchanlik va sog'lom rivojlanish kabi abstrakt tushunchalarni ifodalovchi kognitiv indikatorga aylangan va natijada "yashil iqtisodiyot" iqtisodiyotni tirik, o'zini tiklay oladigan tizim sifatida talqin etuvchi konseptual model doirasida, ekologik muvozanat, atrof-muhit xavfsizligi hamda resurslardan oqilona foydalanish qadriyatlarini mujassamlashtirgan holda shakllangan.

Demak, "yashil iqtisodiyot" termini ekologik tasavvurlardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va siyosiy diskursda kognitiv jihatdan qayta shakllangan, mazmunan boyigan va amaliy ahamiyat kasb etgan reterminologik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur metaforik o'tkazish jarayoni qator tadqiqotchilar tomonidan "konseptual integratsiya" (Fauconnier va Turner, 2002) yoki "mental xaritalarning qo'shilishi" sifatida izohlanadi. Bu yondashuvga ko'ra, "yashil iqtisodiyot" tushunchasi ekologik va iqtisodiy tafakkur modellarning birlashuvi natijasida shakllanadi. Bir tomondan, ushbu atama tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash kabi g'oyalarni ifodalasa, ikkinchi tomondan, bozor mexanizmlari, investitsion samaradorlik, iqtisodiy raqobat va xalqaro standartlarga moslashuv kabi iqtisodiy amaliyotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Natijada, mazkur ikki turdagi tushunchalar yagona konseptual maydonda birlashib, yangi terminologik birlikni yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, reterminologizatsiya faqat termin ma'nosining o'zgarishi bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy tafakkurda yangi bilim modellari, yangi konseptual freymlar va yangi amaliy nutq shakllarining shakllanishiga xizmat qiluvchi kuchli diskursiv mexanizm hisoblanadi. Shu bois, u

terminologik tizimning ichki rivojlanish qonuniyatlarini, fanlararo integratsiya jarayonlarini hamda tilning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarga moslashuv darajasini yoritishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

**Metodlar.** Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

– deskriptiv-tahliliy metod – terminlarning semantik rivojlanishini aniqlash uchun;

– qiyosiy-semantik tahlil – ekologik va iqtisodiy diskurslardagi termin ma'nolarini solishtirish uchun;

– kognitiv yondashuv – metaforik va konseptual o'zgarishlarni tahlil qilish uchun.

Natijalar: Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" termini dastlab ekologik metafora sifatida, ya'ni ekologik tizimlarning barqarorligi, tabiiy muvozanatni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyalari asoslangan holda shakllangan. Biroq keyingi bosqichlarda ushbu atama iqtisodiy diskurs doirasida mustaqil va amaliy (operatsional) model darajasiga ko'tarildi. Bunday o'zgarish terminning dastlabki ekologik kontekstdan iqtisodiyot sohasiga o'tishi, shu jarayonda yangi ma'noviy va funksional yuklama kasb etishi bilan izohlanadi. Mazkur holat terminologiyada terminologik o'zgarish va qayta terminlash (reterminologizatsiya) jarayonlarining yaqqol ko'rinishi hisoblanadi.

I. A. Sternin (2001) terminlarning ma'no doirasi kengayib, yangi sohalarga kirib borishi jarayonida metaforik kengayish muhim rol o'ynashini, bu orqali turli diskurslar o'rtasida aloqalar yuzaga kelishini qayd etadi. G. Temmerman (2007) esa "yashil iqtisodiyot" singari tushunchalarning global siyosiy diskursda ideologik vosita sifatida ham ishlatilishini, ya'ni ularning ilmiy aniqligidan tashqari siyosiy-kommunikativ maqsadlarga xizmat qilishini ko'rsatib o'tadi.

Shu tariqa, "yashil iqtisodiyot" va "iqtisodiy resurslar" terminlari ekologik tushunchalarning iqtisodiy diskursga integratsiyalashuvi, determinologizatsiya orqali umumiy nutq maydoniga kirib borishi hamda keyinchalik qayta terminlash jarayonida yangi sohani shakllantiruvchi barqaror terminlar sifatida mustahkamlanishining yorqin namunasi hisoblanadi.

Muhokama. Olingan nazariy va empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, reterminologizatsiya terminologik tizimda faqat tashqi omillar — fanlararo ta'sir yoki xorijiy terminlarning kirib kelishi natijasi sifatida emas, balki tilning ichki rivojlanish mexanizmi sifatida ham faoliyat yuritadi. Ushbu jarayon terminlarning semantik salohiyati, kognitiv moslashuvchanligi va diskursiv funksionalligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, tilning ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlarga javoban o'z-o'zini yangilash qobiliyatini namoyon etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/ru/docs/6303230>
2. Auger, Alain, and Caroline Barrière (eds.). 2008. "Pattern-based Approaches to Semantic Relation Extraction: A State-of-the-art." *Terminology* 14 (1): 1-19.
3. Cabré, M. T. (2003). *Theories of Terminology: Their Description, Prescription and Explanation*. *Terminology*, 9(2), 169–193.
4. Costanza, R. et al. (1997). The value of the world's ecosystem services and natural capital. *Nature*. **387**, pages 253–260
5. *Discourse Analysis* Oxford University Press, 2008 -172 p;
6. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. Basic Books.
7. Hoffmann, L. (2021). \*Kommunikationsmittel Fachsprache\*. Berlin. De Gruyter 308-bet
8. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
9. Theo Van Leeuwen *Discourse and Practice: New Tools for Critical*
10. Toynbee, A. (1972) *A Study of History*. Oxford University Press, London, 321.
11. Temmerman, R. & Kerremans, K. (2003) *Terminology: ontology building and the sociocognitive approach to terminology description*. *Proceedings of CIL* 17. 7. pp. 1-10.
12. Стеинин, И. А. (2001). *Очерки по когнитивной лингвистике*. — Воронеж, 2001